

**Mohichehra PULATOVA,**  
*BuxDU bosqich tayanch doktoranti*  
 E-mail: *moxito\_pulatova@mail.ru*  
 Tel: +998914439560

*BuxDPI, Xorijiy tillar kafedrası mudiri, f.f.n, dotsent H.O.Yusupova taqrizi asosida*

## COMPARATIVE ANALYSIS OF THE IMAGES OF AMIR TEMUR CREATED BY CHRISTOPHER MARLO, ABDULLA ORIPOV AND PIRIMKUL KODIROV

Annotation

This article analyzes the depiction of the prototype of Amir Temur and similarities and differences between images, created by Christopher Marlo, Abdulla Oripov and Pirimkul Kodirov.

**Key words:** Tragedy, poetic drama, comparative analysis, protagonist, source, appearance

## СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОБРАЗОВ ВЕЛИКОГО ТЕМУРА, СОЗДАНЫХ КРИСТОФРОМ МАРЛО, АБДУЛЛА ОРИПОВЫМ И ПИРИМКУЛ КАДЫРОВЫМ

Аннотация

В данной статье анализируются изображения Амира Тимура и сходство и различия образов созданных Кристофером Марло, Абдуллою Ориповым и Пиримкулом Кадыровым.

**Ключевые слова:** Трагедия, поэтическая драма, сравнительный анализ, протагонист, источник, внешность

## KRISTOFER MARLO, ABDULLA ORIPOV VA PIRIMQUL QODIROV YARATGAN SOHIBQIRON TEMUR OBRAZLARINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Kristofer Marlo, Abdulla Oripov va Pirimqul Qodirov yaratgan sohibqiron Amir Temur obrazlarining tasvirlanishi tahlil qilingan bo'lib, ularning o'ziga xos jihatlari va mushtarakligi qiyosiy o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Tragediya, she'riy drama, qiyosiy tahlil, bosh qahramon, manba, tashqi ko'rinish

**Kirish.** Har bir ijod ahlining o'z ma'naviy dunyosi, cheksiz ichki olami bor. Adabiyot deb atalmish ummonda qalam tebratish kabi ulkan mas'uliyatni bo'yniga olgan iste'dod egalari eng yorqin manzaralarni so'zlar yordamida chizadi. Adabiy asarlar tahlili jarayonida esa ilm toliblari mana shu olamdagi javohirlardan bahramand bo'ladi.

Adabiyotda shunday dur-u gavhar borki, qalam ahli uni bir necha asrlar davomida kuylasa ham u hamon o'zining dolzarbligi bilan dunyo nigohida, u ham bo'lsa sohibqiron Amir Temur obrazidir. Amir Temur haqidagi qo'lyozmalarda o'z faoliyati bilan Sharqdagi ko'pgina mamlakatlarda va xalqlarning hayoti va taqdiriga bevosita ta'sir qilgan, hattoki, G'arbdagi davlatlarning manfaatlariga bevosita aloqador bo'lgan ishlarni amalga oshirgan ulug' insonning shaxsi turibdi. Sohibqiron Temur va temuriyodalar hayoti va faoliyati haqida boy manbalar va adabiyotlar buyuk Temur davridan boshlab, bir necha asrlar mobaynida yaratilgan. Bu manba va adabiyotlar o'rta asrning murakkab hamda ulug' siymosi bo'lmish Amir Temur haqidagi rang – barang qarashlarni o'zida mujassamlashtirgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Sohibqiron haqida yaratilgan har qanday san'at durdonasi o'rganishga va tahlil qilishga arziydi. Jumladan, inglizabon badiiy adabiyotida Amir Temur siymosining yoritilishi haqida so'z ketganida, birinchi navbatda Kristofer Marlo(1587-1588)ning "Tamburlaine the Great" ("Buyuk Temurlang") tragediyasini qayd etish lozim. Muallif Amir Temurni yengilmas, irodali sardor, ulug'vorlik xususiyatlaridan forig' bo'lmagan, ko'rkam, aqilli, chin sevgiga moyil, sodiq do'st sifatleri ila tasvirlagan. Amir Temur siymosini Marlo Uyg'onish davri afsonaviy odamini ko'rsatib, o'z davridagi Yevropa an'analariga muvofiq tarzda ish tutadi, ya'ni Sohibqironni betimsol bashardo'st – gumanist sifatida gavdalantirgan[5].

Amir Temur haqida yaratilgan durdonalarning mushtarakligi ularning qariyb barchasida sohibqironning sarkardalik dahosi va harbiy yurishlari kuylanganligidadir. Ammo, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov(1996)ning "Sohibqiron" she'riy dramasi uning ichki olami, insoniylik xislatlari, otalik, turmush o'rtoqlik, chin do'stlik, mehribon qaynotalik, dono shohlik xislatlarini haqqoniy bo'yoqlarda kuylangan kam sonli asarlardandir. Unda sohibqiron jang maydonlarida emas, ko'proq o'ylar girdobida tasvirlanadi.

O'zbek temurshunos olimlari bilan bir qatorda turib, sohibqironning hayotini o'rgangan, "Temur tuzuklari"ni nashrga tayyorlashga faol ishtirok etgan, "Ona lochin vidosi", "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", "Amir Temur siymosi", "Til va el" va yana ko'pgina adabiyot durdonalarini yaratishda buyuk jahongir timsoliga murojaat etgan O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov yaratgan Temur obrazlari mardligi, bunyodkorligi, olimlarga hurmat-ehtiromdaligi, ayollarga bo'lgan cheksiz hurmati, janglarda biron marta yengilmaganligi, adolatli va haqiqatparvarligi bilan o'zaro mushtarakdir. Misol uchun "Ona lochin vidosi" asarida sohibqiron buyuk sarkarda, kechirimli podshoh, adolatli va mehribon qaynota, dono ota, g'amxo'r umr yo'ldosh, islom dinining chin vakili sifatida tasvirlangan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada qiyosiy tahlil tadqiqot usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunonkim, K.Marlo asarida badiiy to'qima ruhi va unsurlari yuqori bo'sa-da, undagi bosh qahramon iroda kuchi, favqulodda shiddati, nodir salohiyati bilan hayot va tarix haqiqatiga hamohangdir.

The prologue

Where you shall hear the Scythian Tamburlaine  
 Threat'ning the world with high astounding terms

Asar muqaddimasida muallif tomoshabin va o'quvchilarga murojaat etib, "qilichli saltanat va hukmdorlarni jazolaydigan... Temurlang" haqida hikoya qilishini ma'lum qiladi va bu obraz kishilarning yuragini to'lqinlantirishi mumkinligiga umid bog'laydi.

Birinchi qismning ilk pardasi fors hukmdori Miket dargohidagi muloqot bilan ochilgan. Eron podshosi sarkarda Meandran "savdogarlarga tajovuz qiladigan skif o'g'risi Temurlang" haqida gapirib berishni so'raydi.

Meander

Of have I heard your majesty complain  
 Of Tamburlaine, that sturdy Scythian thief,  
 That robs your merchants of Persepolis

Meandr shoh so'rog'iga javoban Temur Eron zaminida har kuni qonunsiz bosqinlar qilayotgani, u Osiyoni egallab, Sharq hukmdori bo'lishga intilayotganidan so'zlaydi. Podsho ham, uning yaqinlari ham o'z kuch va imkoniyatlariga ortiqcha baho berib, oson g'alaba qilishga ishonadilar. Bu sahnada Meandrning hokimyatparast ukasi Xusravning akasini irodasizlikda ayblab, unga qarshi chiqishi, saroy ayonlarining shohdan voz kechib, Xusravga ishonch bildirishlari ham tasvirlangan.

Fojeaning ikkinchi sahnasida qudratli Temur bilan yuzma-yuz kalamiz. "Dahshati Misr sultonining qizi", asira Zenokrata Temurga murojaat etar ekan, uni "cho'pon" deb ataydi. Bu haqida G.Salomov va H.Karamatov shunday yozadilar: "... va .. ning asarlaridagi motiv va detallarning o'xshashligi e'tiborga loyiqdir. Bunday qiyoslash o'rganilayotgan hodisaning o'ziga xosligini yo'qqa chiqarmaydi, aksincha, qiyoslash har ikki adabiy hodisa o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar mohiyatini anglash va aniqlash imkonini beradi. Bu esa, oxir-oqibatda ularni aniq va to'g'ri baholash imkonini beradi."

Kristofer Marlo, Abdulla Oripov hamda Pirimqul Qodirovlar sohibqiron Amir Temur obrazini yaratishda tarixiy voqealarga murojaat etganlar. Abdulla Oripov hamda Pirimqul Qodirovlar o'z asarlarini yaratishda ko'plab tarixiy va xalq og'zaki ijodi manbalariga murojaat qilgan. Jumladan, temurshunoslikda eng ishonchli manba sanalmish "Temur tuzuklari", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" shoh asari, Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi" asari hamda boshqa tarixiy asarlar shular jumlasidandir.

Kristofer Marlo "Buyuk Temurlang" asarini yaratishda qaysi manbalardan foydalangan degan savolga javob izlash esa juda kata tahlilni talab qiladi. Jumladan, O.Dadaboyevning "О степени исторической достоверности образа Амира Темура в драме К.Марло "Тамерлан Великий" nomli ilmiy maqolasida Kristofer Marloning sohibqiron obrazini yaratishda Florensiyalik Petro Perondini "Skiflar imperatori Buyuk Temurlangning hayoti" (1553y), Genuyalik Baptista Fregosoning "Unutilmas hikmatlar va ishlar" (1518), Jorj Uetstonning "Ingliz ko'zgusi" va Mexianing qator asarlaridan foydalanganligi aytiladi. XVI asrda Amir Temurning hayoti haqida arab tilida yozilib, ingliz tiliga tarjima qilingan aniq ishonchli manbaning bo'lmaganligi tufayli Kristofer Marlo yaratgan Tamburlaine obrazi tarixiy manbalarga mos kelmaydigan salbiy bo'yoqdorlik oshib kethan deyish mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Kristofer Marlo, Abdulla Oripov hamda Pirimqul Qodirovlar yaratgan Amir Temur obrazlarida quyidagi musharaklik va o'ziga xosliklarning guvohi bo'lish mumkin:

tashqi ko'rinishi: Tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, Amir Temurning hayot paytida chizilgan mahsus surati yo'q, lekin uning zamondoshi Ibn Arabshohning sohibqironni so'z bilan ifodalagan tasviri bor. U Amir Temurni qaddi-qomati kelishgan, baland bo'yli, tik qomatli, keng peshonali, kallasi katta, bag'oyat kuchli, salobatli, yuzi oq-qizildan kelgan, lekin birona dog'i yo'q, qo'l-oyoqlari baquvvat, yelkallari keng, barmoqlari yo'g'on, boldir va poychalari semiz, qaddi-qomati kamoliga yetgan, sersoqol, ikki ko'zi bamisoli sha'm bo'lsada, shodligi bilinmas, yo'g'on ovozi deb sifatlagan edi. Ibn Arabshohning yozishicha, Amir Temur o'limdan qo'rqmas, qartayib qolgan bo'lsa-da, iztirobsiz, vazmin, badani to'la va pishiq, xuddi tosh misoli qattiq edi. U hazil-mazah va yolg'onni yoqtirmas, o'yin-kulgiyu, ko'ngilhushlikka maylsiz edi. U bo'lib o'tgan ishga aziyat chekmas edi va hosil bo'ladigan yutuqdan shodlanmas edi. Amir Temur o'tkir fikrlovchi, farosatli, ziyrak, do'st-dushmani bir qarashda ajrata biladigan, mard va haqgo'y kishilarni yoqtiruvchi inson edi[4].

Marloning Temurlangi – baland bo'yli, tik qomatli, keng yelkali, uzun qo'lli, oltin sochli shaxs. Ko'rinish turibdiki, u oltin sochligi bilan yevropaliklarga o'xshab ketadi.

Abdulla Oripovning "Sohibqiron"ida Amir Temurning Amir Husaynga qarata aytgan ushbu gaplaridan ma'lum bo'ladiki, sohibqironning bir oyog'i hamda bir qo'li Sijiston jangida yaralanib, nogiron bo'lib qolgan.

Xuddi shunday shakldagi paykonlar bilan

Sijistonda yog'iy meni yaralagandi

Bir oyog'im ham bir qo'lim hanuz nogiron

Ajab holkim o'shanda sen malham qo'yganding

Eslaysanmi o'sha kunni, Amir Husayn? [6]

Bosh qahramonning dushmani Boyazidga aytgan jumlasidan ham anglash mumkinki, Abdulla Oripov Temurni cho'loq sifatida tasvirlaydi.

Men bir langu,

Sen esa ko'r, notavon so'qir

Bu dunyoda butun odam topilmaganday

Ikkimizga yer yuzining jilovin bermish[6].

Sohibqironning sartaroshiga aytganlari ham bosh qahramonning oqsoqligiga ishora qiladi.

Sartaroshsan, mana senga boshimni egdim

Biroq, meni avf etgaysan, tiz bukolmayman.

Sartarosh

Oyog'ingiz shikast topgan muhorabada,

Shu boisdan avf etadi sizni qulingiz[6].

Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" asarida ham sohibqiron Temurga bir oyog'i oqsoqlanardi deb ta'rif berilgan bo'lsada, ot ustida qilich o'ynatishda unga teng keladigani bo'lmaganligi, faqatgina evarasi Abdulatifgina ot ustida qilich tebratishda bobokaloniga o'xshab mahoratli ekanligi aytiladi[7].

kelib chiqishi: XVI asrgacha G'arb sharqshunoslari Temur kambag'al oiladan kelib chiqqan "cho'pon", "oddiy askar" yoki "kambag'al ishchi" deb atashgan va nimaga erishgan bo'lsa, barchasiga o'zining sabrli va e'tiqodli bo'lganligi uchun erishgan deb hisoblashgan. Oldingi bobimizda eslatib o'tilgan asarlar ta'sirida Kristofer Marlo Temurlangni odiy skifiyalik cho'pon, ya'ni past tabaqadan chiqib, o'z intilishlari, botirligi, shafqatsizligi natijasida hokimiyatga ega bo'lgan inson sifatida tasvirlagan.

Holbuki, u jahonga mashhur sarkarda amir Muhammad Tarag'ay oilasida dunyoga kelgan va barlos qabilasiga mansub bo'lgan mulkdor beklardan bo'lgan.

Onasi esa Buxoro fuzalolarining eng ulug'i bo'lgan shariat qonunlarini sharhlovchisining qizi Teginabegim edi.

Asarning turli qismlarida Abdulla Oripov sohibqironning barlos qabilasidan kelib chiqqanligini ta'kidlaydi. Jumladan, I sahna Amir Temur haqidagi she'r bilan boshlanadi va unda quyidagi misralarni uchratamiz:

Jahonni mo'g'ullar istilosidan

Qutqarib qololgan barlosiy botir... [6]

Keyingi sahnalarda Amir Temurning unga dushmanlik kayfiyatida bo'lgan qaynog'asi Amir Husayn bilan bo'lgan suhbatidan ham uning kelib chiqishi haqida aytiladi.

Amir Temur

Sen Qozog'on nabirasi!

Men – barloszoda!

Amir Husayn

Bir qiblagga bab-barobar yuzni bursak ham,

Sen o'zga bir xonadondan,

Men – Chingiziyman! [6].

Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” asarida Temur barlos qabilasidan kelib chiqqanligi va Keshda otasi uchun madrasa qurishni buyurganligining guvohi bo'lish mumkin.

dini: Abdulla Oripovning “Sohibqiron” ssarida bosh qahramonning shaddiy dushmani Boyazid Sulton bilan muloqotida unga aytgan ushbu jumllaridan uning faqatgina Allohga bo'ysunishi va buyuk saltanat barpo etib, dovrug'i ko'kka taralgan shoh ekanligidan qat'iy nazar, yaratgan qarshisida oddiy banda ekanligini unutmaganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Temur

Biroq Alloh yo'rig'idan chiqmaganman men,

Va aksincha, bu yo'riqni buzgan zotlarning

Adablarin berib keldim, berajakman ham.

...

Qamchisidan qon tomguvchi podshoh bo'lmaylik,

Yaratganning huzurida ojiz bandamiz...

...

Dini Islom,

Shariatning manfaati deb

Hindistonning poytaxtini fath aylagandik...

Keyingi baytlarda kitobxon sohibqironning Rumo yerlarida - jang maydonida qo'l ostidagi sarkardalariga qilgan murojaatida uning musulmon amir ekanligini, adolat va islom dinini yoyish va himoya qilish niyatidaligini tushunishi mumkin.

Ammo Rumo yerida men o'zga emasman,

Men musulmon amiriman! Nasabim turkiy!

Adolat va dini Islom posponidirman...

Sarkardalar, sizga ruhsat

Allohu akbar! [6].

Kristofer Marlning “Buyuk Temurlang” (“Tamburlaine the Great”) asarida Temurning ateist ekanligiga shohid bo'lamiz. Asarning kulminatsion nuqtasida bosh qahramon Qur'onni o'tda yoqishni buyuradi hamda bu olamda ikki xudolikka o'rin yo'qligini, yagona xudo uning o'zi ekanligini aytib jar solidi. Xuddi shu sahnadan keyin u holdan toyib, kasalliklari avj oladi, urushlarda mag'lubiyatga uchrashlari boshlanadi.

xarakteri: Marlo o'z asarida Amir Temur obrazini zo'r jismoniy kuchga ega bo'lgan, yengilmas irodali, jangchilarning yo'l boshchisi hamda qonxo'r qo'mondon sifatida tasvirlaydi. Adolatsiz zamonda, insof, diyonatni unutgan podshohlar jazosini berish uchun Xudo tomonidan yuborilgan “g'azab qamchisi”, “qasos shamshiri” bo'lgan qattiqqo'l va shafqatsiz daho siymosi. U shunday qudratlilik hech qachon mag'lubiyatni bilmagan daho sarkardadir.

Ma'lumki, buyuk o'tmishdoshimiz Amir Temur lashkarboshi, hokim va qonunshunos sifatida yuksak talantga ega, bilimlarga o'ch bo'lgan, olim, rassomlarga homiylik qilgan va odil inson bo'lgan.

Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romanida sohibqiron qo'li ochiq davlat rahbari, mehribon umr yo'ldosh, adolatpesha bobo, kelinlarni himoya qiluvchi qaynota va ishonchli do'st bo'lishi bilan bir qatorda, mohir qilichboz, aql zakovatli strateg va iqtidorli lashkarboshi sifatida tasvirlanganligiga guvoh bo'lish mumkin.

o'limi: “Buyuk Temurlang” asari oxirida Temurlang Vavilonni zabt etib, hokimiyatning yuqori cho'qqisiga erishadi, hayoti so'ngida o'zini xudodan ustun qo'yib, muqaddas Qur'onni o'tda yondirishga buyruq beradi:

Now, Casane, where's the Turkish Alcoran

And all the heaps of superstitious books

Found in the temples of that Mahomet

Whom I have thought a god?

They shall be burnt[2].

Temurlang bu qilmishlari bilan Tangri irodasini o'ziga qarshi qaratadi. Qahramonning fojeasi xuddi shu yerdan boshlanadi. U birdaniga holsizlik sezadi, kasallikni yengish uchun qilgan barcha harakatlari muvafaqqiyatsizlikka uchraydi.

Boshqa tragik asar qahramonlar kabi muallif asarni o'lim bilan yakunlaydi. Kasallik uning bosqinchilik harakatini to'xtatadi va u afsus, nadomat bilan vorisiga murojaat qiladi:

First, take my scourge and my imperial crown,

And mount my royal chariot of estate

That I may see thee crowned before I die[2].

Yuqoridagi misolda asar qahramoni Temurlang hayotining oxirgi daqiqalarida ham Tangriga sig'inmasdan vorisiga jangu jadallarni davom ettirishni vasiyat qilayapti.

Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romanida esa Amir Temur yotgan xonada yong'in chiqishi va yong'in paytida Amir Temur uchun bexatar joyda chodir o'rnatgulariga qadar tunda qattiq sovuq va izg'irin shamol unga yomon ta'sir qilganligi hamda isitmasi ko'tarilib, xastalanib qolganligi aytiladi. Shundan keyin barcha saroy ahli sohibqironni davolash bilan band bo'lishadi biroq muolajalar kor qilmaganligi tasvirlanadi.

Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasida Temurning Xitoy tomon yurish qilayotgan sahnasi bayon etiladi. Yurish paytida katta lashkar Rossiyaning sovuq kengliklarida chodir qilib o'tirgan holda, kayfiyati tushgan, o'zlari horg'in holda tasvirlanadi. Shunda sohibqiron lashkarning ruhini ko'tarish va ularga bu sovuq hech nima emasligini ko'rsatish maqsadida, izg'irin sovuqda katta kenglikda sochini kalga oldiradi. Shundan so'ng qattiq kasallanib, ko'rsatilgan muolajalarga qaramay holsizlanib, dunyodan ko'z yumadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, Kristofer Marlo, Abdulla Oripov hamda Pirimqul Qodirovlar ijodida sohibqiron Temur beqiyos jismoniy qudratga ega bo'lgan afsonaviy paxlavon, bukilmaz irodaga ega bo'lgan jangchi dohiy sifatida tasvirlangan. Biroq, Kristofer Marlning “Buyuk Temurlang” asarida Temur shaxsining salbiy xususiyatlari haddan tashqari bo'rtirilgan, ijobiy tomonlari esa o'z navbatida salbiy xususiyatlarga ko'proq e'tiborni qaratish maqsadida kamaytirib ko'rsatilgan. Asarda Temurning

ishlari va faoliyati turli xil badiiy bo‘yoqlar orqali bo‘yab ko‘rsatilgan, dramaturg noan‘anaviy vositalar yordamida asarni yaratib, o‘z davrida ulkan muvaffaqiyatga erishdi. Lekin shuni ham aytish kerakki, dramaturg haqiqatga ham asoslanib ish olib borgan. Asarda joy nomlari, ba‘zi bir yillar haqiqatga ozmi-ko‘pmi yaqin. Ba‘zi qahramonlarning nomlari o‘zgartirib berilgan (masalan: Boyazidning xotini malika Bastaniyaning ismi asarda Zabina deb berilgan.) Amir Temur o‘z davlatini faqat kuchga tayanib boshqargani yo‘q. Afsuski ba‘zi manbalar va tadqiqotlarda shunday fikrlar bayon qilingan. Agar bu davlat faqatgina kuchga tayangan holda tuzilgan bo‘lsa edi, avvalambor bunchalik uzoq davr turolmasdi. Amir Temur o‘z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etganligini Abdulla Oripov va Pirmqul Qodirovlar yaratgan sohibqiron Temur obrazlarida ko‘rishimiz mumkin.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 400 b
2. 2.Kristofer Marlo. Sohibqiron Temur. Ma‘ruf Jalil tarjimasi. - Toshkent: Adabsannashr, 1989. - 122 b.
3. Christopher Marlow. Tamburlaine the Great. - London: Dover Publication, 2002,- 128 p
4. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 1-jild. – Toshkent: Mehnat, 1992. 153 bet
5. M.K.Yakubov. Inglizabon adabiyotda Amir Temur siymosi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro, - 2021. 21b.
6. Abdulla Oripov. Sohibqiron. – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2020. – 96 b.
7. Qodirov Pirmqul. Ona lochin vidosi: tarixiy roman. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2022. – 272 b